

SPORT MAKTABLARI TRENERLARINING KASBIY FAOLIYATI NATIJALARINI BAHOLASHDA AXBOROT TIZIMLARINING INTEGRATSIYA MASALASI

Bisenbaev Islambek Qaypnazarovich

Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Nukus filiali katta o'qituvchisi e-mail: bisenbaevislam@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada Sport maktablari trenerlarining kasbiy faoliyati natijalarini monitoring qilish va baholashda mavjud axborot tizimlarning integratsiyasi, inson omilini minimallashtirish va samaradorligini oshirish hamda resurslarni tejash masalasi haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: integratsiya, kasbiy faoliyat, raqamli texnologiyalar, monitoring, baholash, raqamlashtirish, raqamli platforma, axborot tizimlari.

THE ISSUE OF INTEGRATING INFORMATION SYSTEMS IN EVALUATING THE RESULTS OF PROFESSIONAL ACTIVITIES OF SPORTS SCHOOL COACHES

Abstract. The article discusses the integration of existing information systems for monitoring and evaluating the professional performance of sports school coaches, minimizing human factors, improving efficiency, and addressing the issue of resource conservation.

Keywords: integration, professional activity, digital technologies, monitoring, assessment, digitalization, digital platform, information systems.

ВОПРОС ИНТЕГРАЦИИ ИНФОРМАЦИОННЫХ СИСТЕМ ПРИ ОЦЕНКЕ РЕЗУЛЬТАТОВ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ТРЕНЕРОВ СПОРТИВНЫХ ШКОЛ

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы интеграции существующих информационных систем для мониторинга и оценки результатов профессиональной деятельности тренеров спортивных школ, минимизации человеческого фактора, повышения эффективности, а также экономии ресурсов.

Ключевые слова: интеграция, профессиональная деятельность, цифровые технологии, мониторинг, оценка, цифровизация, цифровая платформа, информационные системы.

Kirish. Hozirgi kunda davlat tashkilotlari o'z faoliyatining xususiyati, bajaradigan vazifalari va funksiyalaridan kelib chiqib, boshqaruv jarayonlarini takomillashtirish maqsadida turli axborot tizimlarini faoliyatiga joriy etmoqda. Bu axborot tizimlari turli ma'lumotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va tahlil qilish

imkonini beradi. Sport vazirligi tizimida bir nechta axborot tizimlarning faoliyati yo'lga qo'yilgan. Bu axborot tizimlar orqali Sport maktablari trenerlarining ayrim toifadagi individual natijalarini monitoring qilish va baholash mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Bugungi kunda axborot tizimlarining integratsiyasi turli sohalarda mavjud axborot resurslarini yagona platformaga birlashtirish, ma'lumotlarning takrorlanishini kamaytirish hamda xizmatlar sifatini oshirish imkonini berib, biznes, davlat boshqaruvi, sog'liqni saqlash va ta'lim tizimlarida sezilarli natijalarga erishilishini ta'minlamoqda.

Axborot tizimlarini integratsiya qilish — bu bir nechta tizimlar o'rtasida ma'lumotlar almashinuvini va o'zaro aloqalarni ta'minlovchi jarayondir. Zamonaviy axborot tizimlari biri-biridan mustaqil bo'lishi mumkin, ammo ularning o'zaro integratsiyasi ko'plab sohalarning muvaffaqiyatli ishlash uchun zarurdir[3].

Axborot tizimlarining integratsiyasi, axborot resurslarini yagona platformaga birlashtirish, xizmatlar sifatini oshirish masalalari J.Z.Razzokov, H.I.Eshankulov, R.B.Murodova, Y.Nuryanti, Y.N.Simorangkir, M.Asbari, Y.A.Ferdiyanto va boshqa olimlarning ilmiy tadqiqot ishlarida yoritilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2022-yil 4-iyulda 355-son qarori bilan **jismoniy** tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislar malakasini oshirishni bevosita, muqobil, mustaqil, ilmiy-tadqiqot muassasalarida va xorijda tajriba orttirish shakllari bo'yicha amalga oshirish tizimi yo'lga qo'yildi. Bunda, muqobil malaka oshirish — mustaqil malaka oshirish shakllaridan foydalanib, jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarning kasbiy faoliyati bo'yicha erishgan individual natijalari tasdig'ini amaldagi bevosita malaka oshirish shakllariga tenglashtirilgan shakli hisoblanadi. Maskur qarorning 3-ilovasi bilan tasdiqlangan nizomda kasbiy faoliyati natijalari (portfolio) – jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarning kasbiy faoliyatida erishgan natijalari, tayyorlagan sportchilari va ularning erishgan yutuqlari, o'quv adabiyotlari va ilmiy-tadqiqot ishlari, ratsionalizatorlik takliflari, patentlar hamda mualliflik guvohnomalari kabi yutuqlarini baholash tizimini joriy etilgan[1]. Malaka oshirishning muqobil shaklida malaka oshirish uchun Sport maktablari trenerlarining oxirgi 4 yilda kasbiy faoliyatida erishgan individual natijalari malaka oshirish kursi boshlanishi sanasidan boshlab, uch ish kunigacha bo'lgan muddatda kasbiy faoliyatida erishgan natijalarini hujjat bilan tasdiqlan(asliga to'g'ri muhr, muassasa rahbari imzosi bilan)gan ma'lumotlarni ta'lim muassasasiga taqdim etishi belgilangan. Belgilangan muddatdan kech taqdim etilgan hujjatlar mazkur kurs uchun inobatga olinmaydi. Sport maktablari trenerlari tomonidan taqdim etilgan hujjatlar ta'lim muassasasi attestatsiya komissiyasining professor-o'qituvchi va soha mutaxassislari iborat tarkibdagi ekspertlar guruhi tomonidan baholanib 3 ish kuni mobaynida natijasi e'lon qilinadi[2].

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqot Sport maktablari trenerlarining kasbiy faoliyati natijalarini monitoring va baholash natijalari bo'yicha imtiyozlar

berishdagi asosiy muammolarni mavjud axborot tizimlarini integratsiyalash asosida hal qilish maqsadida tadqiqot ishlari olib borildi.

1. Tadqiqot obyekti. Tadqiqot obyekti sifatida Sport maktablari trenerlarining kasbiy faoliyati natijalarini baholashning mavjud tizimlari olindi.

2. Tadqiqot metodlari. Tadqiqotda quyidagi ilmiy usullar qo'llanildi:

Hujjatlar tahlili: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari va Sport vazirining buyruqlari hamda trenerlarining kasbiy faoliyati natijalarini tasdiqlovchi normativ-huquqiy hujjatlar o'rganildi.

Holatlarni kuzatish: Sport maktablari trenerlarining kasbiy faoliyati natijalarini baholash jarayonini amaliy ravishda kuzatish orqali olingan ma'lumotlar tahlil qilindi.

3. Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot pedagogik kuzatish usuli asosida amaliy va nazariy jihatdan olib borildi.

Tahlil va natijalar. Sport maktablari trenerlarining kasbiy faoliyati natijalarini baholash va baholash natijalari bo'yicha imtiyozlar berish bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Amaliyotda sport maktablari trenerlarining kasbiy faoliyati natijalarini baholash hamda baholash natijalariga asosan imtiyozlar berish jarayonida bir qator tizimli muammolar mavjud. Jumladan, baholash raqamlashtirilmagan, kasbiy faoliyati natijalarini tasdiqlovchi hujjatlarni to'plash, saqlash hamda ularni taqdim etishdagi muammolar trenerlarning kasbiy faoliyati samaradorligiga va ishlashga bo'lgan motivatsiyalariga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, sport maktablari trenerlarining kasbiy faoliyati natijalarini baholash tizimini samarali tashkil etishda hozirgi kunda mavjud axborot tizimlarga integratsiyalashgan raqamli platforma asosida takomillashtirish zarurati sezilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 355-son qarorida(3-ilova) qabul qilingan sport maktablari trenerlarining kasbiy faoliyatini baholash mezonidagi 9 ta banddan 5 tasini(30 ball va undan kam ballarni) hozirgi kundagi mavjud bo'lgan axborot tizimlardan foydalanib baholash va monitoring qilish mumkin. Ular quyidagi bandlar:

jismoniy tarbiya va sport sohasidagi ma'lumoti – sport maktablari trenerlarining jismoniy tarbiya va sport sohasidagi ma'lumotini Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining oliy, o'rta maxsus va professional ta'lim muassasalarini tugatganligi to'g'risidagi diplom ma'lumotlar bazasi(<https://diplom.edu.uz/>)dan olish mumkin[4].

sport toifasi – Sport vazirligi tomonidan tashkil etilgan interaktiv xizmatdan foydalanib har bir tinglovchining sport toifasi haqida ma'lumotni (my.sport.uz) olish mumkin[5].

malaka toifasi – Sport vazirligi tomonidan tashkil etilgan interaktiv xizmatdan foydalanib har bir tinglovchining sport toifasi haqida ma'lumot(<https://oldmy.gov.uz/uz/service/350>) olish mumkin[6].

sport turi bo'yicha hakamlik toifasi – Sport vazirligi tomonidan tashkil etilgan interaktiv xizmatdan foydalanib har bir tinglovchining sport toifasi haqida ma'lumot(my.sport.uz) olish mumkin[5].

sport sinovlari natijasiga ko'ra jismoniy tayyorgarlik darajasi–Sport vazirligi tomonidan tashkil etilgan interaktiv xizmatdan foydalanib har bir tinglovchining sport toifasi haqida ma'lumot(my.sport.uz) olish mumkin[5].

Xulosa va takliflar. O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, sport maktablari trenerlarining kasbiy faoliyati natijalarini baholash(monitring qilish)da va baholash natijalari asosida imtiyozlar berish tizimini yagona integratsiyalashgan raqamli platforma shaklda yo'lga qo'yishni talab qilmoqda.

Birinchidan, sport maktablari trenerlarining kasbiy faoliyatini baholash va monitoring qilishda integratsiyalashgan raqamli platforma turli davlat tashkilotlarining axborot tizimlaridan ma'lumotlarni olish imkoniyati yaratiladi.

Ikkinchidan, trenerlarning vaqti va moliyaviy resurslarni iqtisod qilish, ish jarayonlarini optimallashtirish hamda boshqaruv samaradorligini oshirishga, baholashdagi inson omilini va byurokratik to'siqlarni kamaytirishga ta'sir ko'rsatadi.

Shu yo'nalishda ilmiy asoslangan integratsiyalashgan raqamli platforma modelni yaratish va uni amaliyotga joriy etish maktab sport maktablari trenerlarining kasbiy faoliyati natijalarin baholash tizimini yangi bosqichga olib chiqadi. Trenerlarning ishlashga bo'lgan motivatsiyalarni va ta'lim sifatni oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4 iyuldagi “Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish choratadbirlari to'g'risida”gi 355-sonli Qarori:

2.O'zbekiston Respublikasi Sport vazirining 2024-yil 10-iyuldagi 01/1091-A/F-son buyrug'i Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish jarayoni (tizimini) bilan bog'liq hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida;

3.Razzokov J. (2025). Axborot tizimlarini integratsiyalashning zamonaviy yechimlari. International scientific journal «Modern science and research» [InLibrary](#)

Internet manbalar:

1. <https://diplom.edu.uz/>
2. <https://my.sport.uz/>
3. <https://oldmy.gov.uz/uz/service/350>